OLIY TA'LIM RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Maxmudova Sevinch

sbaterova@gmail.com

Rustamova Malika

rustamovamalikaxon2006@gmail.com

Jurakulova Gulzira

gulzirajurakulova2007@gmail.com

Maxmudova Shirin

mahmudovashirin2006@gmail.com

Esonova Sevinch

Tarix yo'nalishi talabalari

Ilmiy maslahatchi: **Xayrullina Parizod Fargat qizi**

https://orcid.org/0009-0001-8235-3058

1parizod2@gmail.com

ChDPU Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb va zamonaviy yo'nalishlari keng yoritib berilgan. Xususan, global ta'lim makonida yuz berayotgan o'zgarishlar, innovatsion yondashuvlar hamda yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tendensiyalarini o'rganish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqilib, ularning amaliy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Boloniya jarayonining o'rni, uning xalqaro standartlarga moslashishdagi roli hamda kredit-modul tizimini joriy etishdagi afzalliklari haqida batafsil fikr yuritiladi. Maqolada, shuningdek, globallashuv sharoitida ta'lim sifatini oshirish, akademik mobillikni kengaytirish va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, zamonaviy yo'nalishlar, globallashuv jarayoni, integratsiyalashuv, tijoratlashuv, akademik mobillik, innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim tizimi.

Аннотация: В данной статье широко освещены актуальные и современные направления развития системы высшего образования. В частности, анализируются изменения, происходящие в глобальном образовательном пространстве, инновационные

подходы, а также внедрение новых педагогических технологий. На основе сравнительного анализа рассматриваются научные взгляды ведущих ученых, занимающихся изучением тенденций высшего образования, и раскрывается их практическое значение. Кроме того, подробно освещается роль Болонского процесса в модернизации системы высшего образования, его значение в адаптации к международным стандартам, а также преимущества внедрения кредитно-модульной системы. В статье также уделяется особое внимание вопросам повышения качества образования в условиях глобализации, расширения академической мобильности и развития возможностей дистанционного обучения.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, современные направления, процесс глобализации, интеграция, коммерциализация, академическая мобильность, инновационные подходы, цифровое образование, система дистанционного обучения.

Abstract: This article comprehensively highlights the current and modern trends in the development of the higher education system. In particular, it analyzes the changes occurring in the global educational space, innovative approaches, as well as the introduction of new pedagogical technologies. Based on a comparative analysis, the scientific views of leading scholars studying higher education trends are examined, and their practical significance is revealed. In addition, the role of the Bologna Process in modernizing the higher education system, its importance in adapting to international standards, and the advantages of implementing the credit-modular system are discussed in detail. The article also pays special attention to issues of improving the quality of education in the context of globalization, expanding academic mobility, and developing opportunities for distance learning.

Keywords: credit-modular system, modern trends, globalization process, integration, commercialization, academic mobility, innovative approaches, digital education, distance learning system.

KIRISH

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim maydoniga integratsiya qilishni amalga oshirishi bugungi globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ta’lim makoniga uyg’unlashish orqali ilmiy salohiyatni mustahkamlash hamda innovatsiyalarni rivojlantirish mamlakat kelajagini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Davlatimiz xalqaro ta’lim standartlarini qabul qilish orqali o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi chuqur o‘rganilib, samarali jihatlari tahlil qilinmoqda.

Talabalarning mavjud ehtiyojlarini aniqlash, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini shakllantirish va zamonaviy, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda Boloniya jarayoni tajribalari o‘rganib chiqildi. Boloniya jarayoni turli mamlakatlarning oliy ta’lim tizimlarini yagona mezonga keltirish, Yevropaning turli milliy ta’lim tizimlarini shaffof hamda o‘zaro mos holga keltirish maqsadida

1999-yil 19-iyunda 29 ta Yevropa davlati ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi bilan boshlangan bo'lib, u Bolonya universiteti nomi bilan atalgan.[1]

Ushbu jarayon Yevropa Kengashining Yevropa madaniy konvensiyasi doirasida boshqa davlatlar uchun ham ochiq hisoblanadi. Boloniya jarayoni doirasidagi hukumatlararo uchrashuvlar Praga (2001), Berlin (2003), Bergen (2005), London (2007), Leven (2009), Budapesht–Vena (2010), Buxarest (2012), Yerevan (2015), Parij (2018) va Rim (2020) shaharlarida o'tkazilgan. Bugungi kunga qadar ushbu jarayon Yevropa Kengashining 1954-yildagi Yevropa madaniyat konvensiyasini ratifikatsiya qilgan 49 davlatdan 48 tasini qamrab olgan.

E'tiborli jihati shundaki, Qozog'iston Yevropa ta'lim makonining to'laqonli a'zosi sifatida e'tirof etilgan birinchi Markaziy Osiyo davlati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini izchil isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi.[2]

Hozirgi kunga kelib oliy ta'lim muassasalarida orttirilgan tajribalar asosida zamonaviy ta'lim metodlaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, raqamli platformalar orqali masofaviy va onlayn mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Bu esa o'z navbatida ma'lumotlarni erkin almashish, ta'lim xizmatlarining importi va eksportini rag'batlantirish, ta'lim innovatsiyalarini joriy etishga ko'maklashish hamda axborot texnologiyalarining samarali rivojlanishiga xizmat qiluvchi ta'lim shakl va usullaridan foydalanish imkonini bermoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan sifatli (qualitative) va taqqoslay-analitik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tizimlashtirish, xalqaro va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekistondagi islohotlarning samaradorligini baholashdan iborat bo'lganligi sababli, empirik eksperimentdan ko'ra nazariy-analitik metodlar ustuvor deb belgilandi.

Tadqiqot jarayonida pedagogika, ta'lim texnologiyalari, xalqaro ta'lim siyosati va iqtisodiyot sohalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi. Manbalar

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (824-sonli Qaror). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

tanlovi Boloniya jarayoni, kredit-modul tizimi, akademik mobillik, raqamli ta’lim va masofaviy ta’lim bilan bog’liq mezonlar asosida amalga oshirildi. Xususan, UNESCO, OECD, Jahon banki hisobotlari, shuningdek zamonaviy oliy ta’lim sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar (Altbach, Knight, Selwyn) ning ilmiy ishlari asosiy nazariy tayanch sifatida tanlandi.

Tahlil jarayonida kontent tahlil (content analysis) metodi asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida tanlangan ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, kategoriyalar va nazariy yondashuvlar aniqlanib, ularning oliy ta’lim rivojlanishi konsepsiyasi bilan o‘zaro bog’liqligi tahlil qilindi. Kontent tahlil natijasida zamonaviy ta’lim tizimlarining ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, mavjud muammo va kamchiliklar ham aniqlashtirildi.

Shuningdek, tadqiqotda analitik-taqqoshlama (comparative-analytical) yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv orqali turli mamlakatlar (AQSh, Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya, Qozog’iston)da oliy ta’lim tizimiga kredit-modul tizimi va Boloniya jarayoni tamoyillarining joriy qilinishi tajribasi o‘zaro solishtirildi. Natijada samarali va progressiv yondashuvlar umumlashtirildi.

Metodologik tahlil quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha olib borildi: birinchidan, Boloniya jarayonining oliy ta’lim sifati va akademik mobillikka ta’siri; ikkinchidan, kredit-modul tizimini joriy etishning talabalar va o‘qituvchilarga ko‘rsatadigan ta’siri; uchinchidan, masofaviy va raqamli ta’limning zamonaviy imkoniyatlari; to‘rtinchidan, O‘zbekistondagi ta’lim islohotlarining xalqaro standartlarga muvofiqligi va amaliy samaradorligi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimining zamonaviy tendensiyalari globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, ikkita asosiy yo’alishda rivojlanmoqda: xalqaro integratsiya va texnologik innovatsiya.

Boloniya jarayoniga nisbatan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizim Yevropa ta’lim makonida akademik mobillikni sezilarli darajada oshirgan, talabalar va o‘qituvchilarning erkin harakatlanishi uchun real sharoit yaratgan. Biroq, ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tizimni to‘liq qo‘llashda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, moddiy-texnik baza yetarli bo‘lmagan universitetlarda kredit tizimini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish murakkab kechmoqda. Qozog’iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Boloniya tizimiga qo‘shilish o‘z-o‘zidan yuqori ta’lim sifatini kafolatlamaydi — bu jarayon milliy ta’lim tizimining ichki islohotlari bilan uyg’unlashtirilgandagina samarali bo‘ladi.

O‘zbekistonda kredit-modul tizimini joriy etish tahlili ijobiy natijalar berganligini ko‘rsatadi. 2020-yildagi 824-son Qaror asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining tuzilishi tubdan o‘zgardi. Talabalarning mustaqil ta’lim ulushi oshdi, fanlarni tanlash erkinligi kengaydi, professor-o‘qituvchilarning xorijiy hamkorlik imkoniyatlari ortdi. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, kredit tizimiga o‘tish jarayonida ba’zi o‘quv muassasalarida sifat nazorati yetarli darajada ta’minlanmagan, o‘quv yuklamalarining notekis taqsimlanishi muammolari kuzatilmoqda.

Raqamli ta’lim va masofaviy o‘qitish tendensiyasi jahon miqyosida tezkor sur’atlar bilan rivojlanmoqda. COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni yanada jadallashtirdi va onlayn ta’limning

zaruriy va to‘laqonli ta’lim shakllaridan biriga aylanganligini isbotladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari ham bu yo‘nalishda faol harakatlanmoqda. Biroq raqamli tafovut (digital divide) muammosi — ya’ni shahar va qishloq universitetlari o‘rtasidagi texnologik imkoniyatlar farqi — hali ham muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni tasdiqlaydiki, oliy ta’limdagi muvaffaqiyatli islohotlar uchta asosiy shart bir-birini to‘ldirganda maqsadga muvofiq bo‘ladi: mustahkam qonunchilik bazasi, zamonaviy moddiy-texnik infratuzilma va yuqori malakali pedagogik kadrlar. O‘zbekistonda ushbu uchta yo‘nalish bo‘yicha ham sezilarli ilgarilamalar kuzatilmoqda, ammo ularni uyg’un holda rivojlantirish talab qilinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimining zamonaviy tendensiyasi rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh va ish beruvchi tashkilotlar talablariga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan hamda kelajak avlod uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi milliy ta’lim tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Boloniya jarayoni va kredit-modul tizimi oliy ta’limni xalqarolashtirishning samarali mexanizmi sifatida o‘zini isbotlagan; O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari xalqaro standartlarga mos yo‘nalishda davom etmoqda; masofaviy va raqamli ta’lim zamonaviy oliy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda; akademik mobillik va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Oliy ta’limdagi zamonaviy tendensiyalarga muvaffaqiyatli moslashish uchun ta’lim muassasalari, davlat organlari va ish beruvchilar o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, professor-o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishi va talabalar mustaqilligini rag’batlantirish tizimini takomillashtirish lozim. Umuman olganda, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar nafaqat kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). *O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *Oliy ta’lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (824-sonli Qaror). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. Bologna Declaration. (1999). *Joint declaration of the European Ministers of Education*. European Ministers of Education.
4. European Higher Education Area. (2005–2020). *Official documents and reports*. EHEA.
5. UNESCO. (2021). *Higher education and globalization report*. UNESCO Publishing.
6. World Bank. (2020). *Tertiary education and skills development in the context of globalization*. World Bank Group.

7. OECD. (2022). *Education at a glance 2022: OECD indicators*. OECD Publishing.
8. Tuning Project. (2018). *Tuning educational structures in Europe: Reference documents*. University of Groningen.
9. UNESCO Institute for Statistics. (2022). *Global education monitoring report 2022*. UNESCO Publishing.
10. Knight, J. (2013). *International education hubs: Student, talent, knowledge-innovation models*. Springer.
11. Kudratov, R. (2020). *Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari*. Toshkent.
12. Jo'rayev, M. (2019). *O'zbekiston ta'lim tizimida kredit-modul tizimi*. Toshkent davlat universiteti nashri.
13. Ismailov, A. (2021). *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent.